

BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHISI TAYORLASHDA TARBIYA TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Muxsiyeva A.Sh., TDPU professori, pedagogika fanlari doktori,
Nurbekova N.N., TDPU talabasi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi tayorlashda tarbiya texnologiyalardan foydalanish, respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish, ta'lim texnologiyalarning mazmuni, ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyatining pedagogik-psixologik shart-sharoitlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim texnologiya, malaka talab, kasbiy kompetensiya, tayanch kompetensiyalar, o'qituvchilar, ijtimoiy kompetentlik, o'quv faoliyatini rag'batlantirish, muvaffaqiyat holatini yaratish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash, hayotiy tajriba.

Huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda yoshlarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan sanaladi. Ijtimoiy-siyosiy hayotni rivojlantirishning muhim talablaridan biri ham aynan o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi faolligini oshirishdir. Bu esa bir necha omillarni o'z ichiga oladigan o'ziga xos murakkab pedagogik jarayon. Mazkur jarayonda dastlab masalaning ilmiy yechimini topish ijobiy samara beradi.

2020 yil yakunlaridagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "yosh avlodga bog'cha, maktab va oliygohda sifatli ta'lim-tarbiya berishni yo'lga qo'yamiz, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz" – degan fikirlari ta'lim sohasidagi amalga oshirilib kelinayotgan ishlarimizni samarali tashkil etishimiz uchun dasturul amal bo'ladi [1].

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ".....jamiyatda o'qituvchi kasbi eng nufuzli va obro'li kasb bo'lishi lozim. Muallimlarimiz bolalarga sifatli ta'lim berish va o'z ustida ishlashdan boshqa narsa haqida o'ylamasligi uchun davlat barcha sharoitlarni yaratib berishi zarur" - deb ta'kidlab o'tdilar [1].

Tarbiya" fani o'qituvchisining pedagogik mahorati haqida gap ketganda empatiya muhim o'rin tutadi. O'quvchilarga yo'naltirilgan empatiya o'qituvchining ularning emotsional dunyosiga yo'nalganlik, ichki olamidagi vaziyatni his qila olishga imkon beradi. Empatiya ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: qayg'urish (sherigining emotsional holatiga qayg'udosh bo'lish) va achinish (sherigining hissiyotiga o'zining hamdardligini ifoda etish).

Tarbiya fanini o'qitishda motivatsion bosqichda o'yinli texnika usullaridan ham foydalanish ta'lim muassasasi o'quvchilarining ham o'z guruhidagi, ham butun jamoa haqidagi ma'lumotlarni yaqindan bilishlariga imkon beradi. Ayniqsa, "Aqliy hujum", "Rolli o'yin", "Ishbilarmonlar o'yini", "Juftlik asosida tanishuv" kabi o'yinlarni qo'llash tavsiya etiladi.

Aqliy hujum shaklida ish tashkil qilinganida o'quvchilarda ijobiy motivatsiya hosil qilishga, g'oyalarni xolisona ishlab chiqishga urg'u beriladi. O'quv shakli "Rolli o'yin" bo'lganida o'quvchilar o'zlarini oldindan rejalashtirilgan muayyan vaziyatga qo'yishi va improvizatsiya qilib belgilangan doirada maxsus rolni bajaradilar. Bunda motivlar, argumentlash texnikasi, xulq-atvor va muammoga nisbatan nuqtai-nazarlar nazorat

qilinishi mumkin. "Ishbilarmonlar" o'yini muayyan muammoli vaziyatda turli yechimlarni ko'rib chiqish imkonini beradi. Bunda o'quvchilar muammoga ta'sir qiluvchi turli omillar har xil yechimlarda natijaga qanday ta'sir qilishini bilib oladilar. Loyihaviy ish orqali guruhviy ish bajarilishida loyiha muayyan chegaralarda taqdim etilishi talab etiladi. Bu usul masalalar yechimi kompleks topshiriqlar negizida mehnat taqsimlanishiga asoslangan.

"Juftlik asosida tanishuv" o'yini. Ishtirokchilar juft-juft bo'lib o'n minut davomida bir-birlariga o'zlari haqida ma'lumot beradilar. Keyin ulardan biri ishtirokchilar bir-birlarini tanishtirgunlariga qadar davom etadi.

Keyingi bosqich mazmunli bosqich bo'lib, o'z navbatida ikki qismdan tashkil topadi: axboriy va kognitiv. Axboriy darajada boshqaruv madaniyati bilan bog'liq nazariy bilimlar egallansa, kognitiv darajada mazkur bilimlarning boshqaruv jarayonidagi xulq-atvor ko'rinishiga o'tkazilishi uchun zaruriy ko'rsatmalar taqdim etiladi.

Mazkur bosqichda tushuntirish, matn bilan ishlash, aqliy hujum, ma'ruza – munozara, dialog kabi metod va usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tushuntirish – ta'limning og'zaki metodi sifatida barcha yoshdagi tarbiyalanuvchilar bilan ishlashda qo'llash mumkin bo'lgan universal metoddir. Tushuntirish metodi analiz (tahlil etish), sintez (umumiylashtirish), induksiya (umumiydan xususiylarga qarab borish) va deduksiya (xususiylardan umumiyga qarab borish) usullari orqali amalga oshiriladi. Mazkur metod orqali umumta'lim maktablari o'quvchilarini ijtimoiy hayot bilan asosiy tushunchalar, shaxs va jamiyat rivojlanishidagi o'zaro aloqadorlik, bugungi kundagi ahamiyati haqidagi bilimlar tarkib toptiriladi.

Matn bilan ishlash – o'quvchilarni axborotlar bilan tanishishi, mazmunini tushunib yetishlari, axborotlarni tahlil etish, umumlashtirish, taqqoslash va xulosa chiqara olishlarigacha bo'lgan jarayonni samarali amalga oshirishni ta'minlovchi metod.

"Aqliy hujum" metodi ilmiy va amaliy muammolarni hal etish uchun yangi g'oyalarni izlab topishni keng qo'llaniladigan usullari yig'indisidir. Uning mohiyati muammoni hal qilishning noan'anaviy yo'llarini izlab topishga doir jamoaviy birgalikdagi faoliyatni tashkil etishda yorqin namoyon bo'ladi.

O'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda mazkur metodni qo'llashda biz quyidagi pedagogik maqsadlarga erishishga harakat qildik:

- 1) o'quvchilar tomonidan o'quv materialini ijodiy o'zlashtirish;
- 2) nazariy bilimlarning amaliyot bilan aloqadorligi;
- 3) o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish;
- 4) tanqidiy, moslashuvchan fikrlashni rivojlantirish;
- 5) refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish;
- 6) dolzarb vazifalarni hal etishda o'quvchi-qizlarning diqqat va aqliy kuchlarini birlashtira olish qobiliyatini shakllantirish;
- 7) jamoaviy ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish;
- 8) o'quvchilar guruhida xohish-istakka asoslangan ishchan muhitni shakllantirish.

"Ma'ruza – munozara" metodi. Ushbu metodning maqsadi o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, axborotni tushuna olish jarayonini faollashtirish hamda o'rganilgan ma'lumotni yanada chuqurroq tushunishdan iborat [3].

Bunga ko'ra, o'qituvchi ma'ruzani mantiqiy qismlarini bayon etishda tezda fikrlar almashuvini tashkil etadi. Tanlab olingan masalalarni ma'ruzachi eshituvchilardan mustaqil muhokamasini amalga oshiradi. Munozara ishtirokchilari o'z fikrlarini o'tirgan joylaridan turmasdan ham bildirishlari mumkin.

Shuningdek, mazmunli bosqichda dialog usullaridan keng foydalanish lozim. Dialogli muloqot o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni yo'lga qo'yishga imkon beribgina qolmasdan, balki shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bilan bog'liqlikda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Texnologiyaning uchinchi – faoliyatli bosqichining asosini xilma-xil konstruktiv muloqot shakllarida ishtirok etish hamda boshqaruvchilik nuqtai nazaridan muloqotning yangi shakllarini loyihalash va amalga oshirish tashkil etadi. Bu maqsadlarga quyidagi pedagogik shartlar bajarilganidagina erishish mumkin: o'quvchilarni zarur sifatning yo'naltirilgan rivojlanishiga olib keladigan boshqaruvchilik mazmuni bilan boyitilgan real hayotiy vaziyatlarga kiritish; o'quvchilarni rivojlantirishga qaratilgan o'z-o'zini axloqiy takomillashtirish vazifalarini ongli ravishda o'z oldiga qo'yishlari kerak; pedagogik ta'sir odimlovchi tavsifga ega bo'lishi, o'zida yangi, biroq hozirgacha shaxsiy tajribada sinovdan o'tganlardan iborat bo'lishi kerak.

Faoliyat real pedagogik vaziyatlarni yaratish jarayonida tashkil qilinadi hamda motivatsion va mazmunli bosqich imkoniyatlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Mazkur bosqichda o'yinli metodlar, treninglar, strategiyalarni modellashtirish, aniq vaziyatlarni tahlil etish (keys-stadi) metod va usullaridan foydalanish mumkin.

“Kontakt” – jamoaviy hikoya tuzish treningi [3].

Trening maksadi:

- 1) ishtirokchilarni bir-biri bilan tanishtirish;
- 2) do'stona munosabatni va ijodiy muhitni yuzaga keltirish;
- 3) o'quvchilar o'rtasidagi ruhiy to'siqlarni yengishga o'rgatish.

Treningdan kutiladigan natija: Mazkur trening o'qituvchi va o'quvchilar jamoasini, uning tabiati, ijodiy imkoniyatlari, qobiliyatlari, ishga munosabatlari, shuningdek, pedagogik jarayonda kim bilan qanday ishlashni, nimaga e'tibor berishni, kimga nimada yordam berishni, kimni kuvvatlashni bilishga imkon yaratadi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi. Mashg'ulot boshlanishidan oldin guruh iltimosiga ko'ra o'quvchilar xonaning kiraverish joyida maxsus stolga tayyorlab qo'yilgan raqamlar yozilgan qog'ozlardan bittadan tanlab oladilar (raqamli qog'ozlar o'quvchilar soni bo'yicha tayyorlanadi) va doira shaklida ko'yilgan stullarga borib joylashadilar.

O'quvchilar o'z joylarini egallagach, “Tarbiya” fani o'qituvchisi ular bilan tuziladigan hikoyaning mavzusini kelishib oladi yoki guruh rahbarining o'zi biron bir mavzu taklif etadi (hikoya mavzusi o'quvchilarning yoshi, qiziqishlarini hisobga olgan holda sarguzashtli, hayotiy yoki yoshlar hayoti, odob-ahloqi haqida bo'lishi mumkin).

Mashg'ulot o'quvchilardan birining biron bir mavzu yoki tanlangan mavzu asosidagi hikoyasidan boshlanishi mumkin (uncha faol bo'lmagan guruhlarda mavzu bo'yicha hikoyani tarbiyachining o'zi boshlab berishi mumkin). Hikoyani boshlagan tarbiyalanuvchi, uning eng qiziqarli joyida so'zlashdan to'xtab, “Hikoyaning davomi raqamli o'quvchida” deydi. Raqami ko'rsatilgan o'quvchi hikoyani (voqeani) to'xtagan joyidan (mavzudan chiqmagan holda) boshlab davom ettiradi. Bu tarbiyalanuvchi ham avvalgi tarbiyalanuvchi kabi hikoyaning eng qiziqarli joyida to'xtab “Hikoyaning davomi raqamli o'quvchida” deydi. Mos raqam ko'rsatilgan o'quvchi hikoyani (voqeani) kelgan joyidan boshlab davom ettiradi. Hikoyani so'zlash, davom ettirish davradagi o'quvchilarning har biri ishtirok etmaguncha, shu tariqa davom etadi.

“Tarbiya” fani o'qituvchisi o'quvchilarning so'zlayotgan hikoyalari bir-biriga mantiqan bog'liq va mazmunga ega bo'lishini kuzatib boradi hamda mavzudan, mazmundan chetlanish bo'lsa, bu holatni to'g'rilab boradi.

Hikoya tuzilgach, tarbiyachi barchaga minnatdorchilik bildiradi va kerakli tavsiyalarni beradi.

Texnologiyaning qadriyatli bosqichi baholovchi tavsifga ega bo'lib, ijtimoiy voqelikni qabul qilish va dunyoqarash tizimiga aylanishini ta'mirlaydi. Qadriyatli bosqichning muvaffaqiyati quyidagi pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni talab etadi:

1) o'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga nisbatan qadriyatli orientatsiya tizimini shakllantirish;

2) ularda voqelikni ko'p tomonlamali baholash, o'z nuqtai nazarlariga turli qarorlarni qabul qila olish qobiliyatini rivojlantirish;

3) o'z-o'ziga ijobiy munosabatni, ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish;

4) ijtimoiy sheriklikka asoslangan shaxslararo o'zaro harakat ko'nikmalarini rivojlantirish.

Mazkur bosqichda "Kerakli so'zlarni topib qo'ying" va "Fikr bildirish", "Bahslashuv", "Kelishuv va ziddiyat", "Ishontirish maktabi", "Mulohaza, sabab, misol va umumlashtirish" kabi metod va usullarni qo'llash maqsadga muvofiqdir [3].

Xulosa o'rnida bo'lajak Tarbiya fanini o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda o'qitish jarayonida tarbiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarni mamlakatimiz ijtimoiy-ma'naviy yangilanish jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlashda keng imkoniyatlar yaratadi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь.

2. Қуронов М. Болам бахтли бўлсин, десангиз... – Тошкент: Маънавият, 2013.

3. Ишмухаммедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиялар. – Т.: Фан ва технология, 2016.

TANQIDIY FIKRLASHNI O'STIRUVCHI INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Xurramova S.M., TerDPI o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi interfaol metodlardan foydalanish yo'llari haqida fikr yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tanqidiy fikrlash, pedagogik texnologiya, interfaol, ta'lim, jarayon, o'qitish, muammo, psixologik, tarbiya, metod.

Tanqidiy fikrlashda erkinlik bolishi uchun talabalar ma'qul va noma'qul narsalari aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruxsat olishlari lozim. Talabalar yo'l qo'yiladigan holatlari anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar.

Tanqidiy tahlilga izn olish onglik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn fikrlash uchun chinakam maqsad bolgan va do'stona hamda samarali sharoitda beriladi.

Rang-baranglik. Talabalarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va g'oyalar paydo bo'ladi. Rang-barang fikr va g'oyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog'dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda talabalarning fikrlashiga chek qo'yiladi. Faqat birgina javob mavjud bolgan taqdirdaxilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida talabalar ana shu javobni topolsin.